Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tizimida shakllanayotgan Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya) institutining huquqiy asoslari va institutsional modeli tahlil qilingan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, PQ-184-son qaror, Ekologiya qo'mitasi va Ekopolitsiyaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ommaviy axborot manbalari asosida mazkur tuzilmaning maqomi, vakolatlari va boshqaruv tizimi ochib berilgan. Tadqiqotda normativ-huquqiy, doktrinal, institutsional va qiyosiy-huquqiy tahlil usullari qo'llanilgan, jumladan OECD, EFFACE hamda Italiya Carabinieri "environmental police" modeli bilan qiyosiy o'rganish amalga oshirilgan. Xulosalarga ko'ra, Ekopolitsiya profilaktika, monitoring va ijroni birlashtirgan gibrid huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida shakllanmoqda, biroq kuch ishlatish vakolatlari, inson huquqlari, institutsional koordinatsiya va kadrlar salohiyatiga oid qator xatarlar saqlanib qolmoqda.

Kalit so'zlar: ekopolitsiya, ekologik huquq, ekologik xavfsizlik, davlat ekologik nazorati, institutsional model, ekologik jinoyatlar, ekologik moslikni ta'minlash.

Abstract: This article analyzes the legal basis and institutional model of the State Environmental Control Inspectorate (Ecopolice) institute being formed within the system of the National Committee for Ecology and Climate Change in Uzbekistan. Based on the "Uzbekistan–2030" strategy, Resolution No. PQ-184, normative and legal documents on the Ecology Committee and the Ecopolice, as well as mass media sources, the status, powers and management system of this structure are identified. The study uses methods of normative-legal, doctrinal, institutional and comparative legal analysis, including a comparative study of the experiences of the OECD, EFFACE and the Italian Carabinieri "environmental police". According to the conclusions, the Ecopolice is being formed as a hybrid law enforcement agency combining prevention, monitoring and enforcement, but risks related to the use of force, human rights, coordination and personnel capacity remain.

Key words: ecopolice, environmental law, environmental security, state environmental control, institutional model, environmental crimes, ensuring environmental compliance.

Аннотация: В статье анализируются правовые основы и институциональная модель формируемого в системе Национального комитета по экологии и изменению климата Узбекистана института Государственной инспекции по контролю за охраной окружающей среды. На основе стратегии «Узбекистан–2030», постановления №ПП-184, нормативно-правовых документов об Экологическом комитете и Экополиции, а также материалов средств массовой информации раскрываются статус, полномочия и система управления данной структуры. В исследовании используются методы нормативно-правового, доктринального, институционального и сравнительно-правового анализа, в том числе сравнительное изучение опыта ОЭСР, EFFACE и итальянской «экологической полиции» карабинеров. Согласно выводам, Экополиция формируется как гибридный правоохранительный орган, сочетающий профилактику, мониторинг и правоприменение, однако сохраняются риски, связанные с применением силы, правами человека, координацией и кадровым потенциалом.

Ключевые слова: экополиция, экологическое право, экологическая безопасность, государственный экологический контроль, институциональная модель, экологические преступления, обеспечение соблюдения экологического законодательства.



KIRISH

So'nggi yillarda ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga moslashuv masalalari O'zbekiston davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan birini tashkil etmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik boshqaruvning institutsional asoslarini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. 2025-yil 15-mayda qabul qilingan PQ–184-son qaror bilan esa 2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlanib, unda davlat ekologik nazoratini kuchaytirish, davlat inspektorlariga maxsus unvonlar berish, inspeksiya faoliyatini raqamlashtirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish vazifalari belgilandi [1–2].

2025-yil 19-noyabrdagi Prezident qarori bilan Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Ekologiya qo'mitasi) tashkil etildi hamda uning tarkibida Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi — Ekopolitsiya to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Shu tariqa, O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va bu yo'nalishdagi huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga qarshi kurashishga ixtisoslashgan, politsiya tipidagi alohida institut — Ekopolitsiya shakllanmoqda [3–5].

Ekologik huquq sohasidagi milliy va xorijiy tadqiqotlar ekologik munosabatlarning o'ziga xos tabiati (ekotizimlar, umumiy resurslar, transchegaraviy ta'sir) davlat nazoratini amalga oshirishda ixtisoslashgan organlar, maxsus usullar va ijro mexanizmlarini talab qilishini ko'rsatadi [7–9]. Tadqiqotchilar ekologik jinoyatlar va huquqbuzarliklar jamiyat va davlat manfaatlariga yuqori xavf tug'dirishini, ularga qarshi kurashishda huquqiy, institutsional va tarbiyaviy mexanizmlar o'zaro bog'liq bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar [7–8].

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda Ekopolitsiya institutining shakllanish jarayonini huquqiy va institutsional nuqtai nazardan ilmiy tahlil qilish, uni xalqaro tajribadagi ekologik politsiya va ekologik nazorat organlari modellariga qiyoslagan holda baholash hamda mazkur institutning ustun va muammoli jihatlari aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ekopolitsiyani tashkil etishning milliy huquqiy asoslarini o'rganish;
- Ekopolitsiya institutsional modelining tuzilishini (tashkiliy o'rni, vakolatlari, hududiy tuzilmasi) tahlil qilish;
- Italiya, Yevropa Ittifoqi va OECD tavsiya etadigan ekologik moslikni ta'minlash mexanizmlari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish;
- Milliy va xalqaro tajriba uyg'unligini inobatga olgan holda Ekopolitsiya faoliyatining potensial ustunliklari va xatarlarini baholash;
- Ekopolitsiya instituti samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompleks, ko'p bosqichli ilmiy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Metodologiya quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Normativ-huquqiy tahlil

Avvalo Ekopolitsiya institutining huquqiy poydevorini tashkil etuvchi milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi o'rganildi:

- "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga doir PF–16-son Farmon [1];
- PQ–184-son qaror bilan tasdiqlangan ekologik madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi [2];
- Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Prezident qarori [3];
- Ekopolitsiya instituti haqida ommaviy axborot vositalarida berilgan rasmiy sharh va izohlar (Kun.uz, Advice.uz va boshqalar) [4–5];
- Davlat ekologik nazorati va ekologik javobgarlikka oid amaldagi qonunlar, jumladan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning kuch ishlatish tartibiga doir normalari.

Mazkur hujjatlarning moddiy (huquqiy maqom, vakolatlar) va funksional (nazorat, profilaktika, ijro) bloklari tizimli ravishda tahlil qilindi. Natijada Ekopolitsiyaning huquqiy maqomi, uning Ekologiya qo'mitasi tizimidagi o'rni, prokuratura va ichki ishlar organlari bilan o'zaro munosabati ilmiy-huquqiy kategoriya sifatida qayta talqin etildi.

2. Doktrinal (ilmiy-nazariy) tahlil

Ekologik huquq, ekologik jinoyatlar va ekologik boshqaruv bo'yicha o'zbek, rus va xorijiy mualliflar ishlari tahlil qilindi. Xususan:

- "Ekologiya huquqi"ga oid milliy darslik va qo'llanmalar [7–8];
- S.A. Bogolyubov tahriri ostidagi "Ekologicheskoe pravo" darsligi [9];
- Sarbinaz [10] va boshqa mualliflarning O'zbekiston ekologik huquqining shakllanishi va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashuviga bag'ishlangan maqolalari [11];



– Ekologik jinoyatlar va jinoiy ijroni o'rgangan zamonaviy tadqiqotlar [17–19].

Doktrinal tahlil Ekopolitsiya institutini zamonaviy ekologik huquq konsepsiyalari — ekologik moslikni ta'minlash, ekologik javobgarlik, profilaktika va profilaktik huquq nazariyalari bilan bog'lash imkonini berdi.

3. Qiyosiy-huquqiy va institutsional tahlil

Tadqiqotning muhim qismi sifatida quyidagilar o'rganildi:

– OECDning ekologik moslikni ta'minlashga oid tavsiyalari [12–14];

– Yevropa Ittifoqidagi EFFACE loyihasi doirasida Italiyadagi ekologik jinoyatlarga qarshi kurash amaliyoti bo'yicha hisobot [16];

– Italiya Carabinieri “for the Environment and Sustainability” bo'linmasining faoliyati haqidagi manbalar [15–16].

Ular asosida ekologik politsiya va ekologik inspeksiya modellarining quyidagi turlari ajratildi:

– vazirliklar tarkibidagi klassik ekologik inspeksiyalar;

– politsiya tipidagi maxsus bo'linmalar (Carabinieri, environmental enforcement units);

– gibrid modellar (inspeksiya + politsiya vakolatlari).

O'zbekistondagi Ekopolitsiya institutining tashkiliy joylashuvi, vakolatlari, kuch ishlatish huquqi va hududiy tuzilmasi mazkur modellar bilan qiyosiy ravishda baholandi.

4. Mantiqiy, tizimli va funksional yondashuv

Ekopolitsiya faoliyati nafaqat yuridik, balki funksional tizim sifatida ham tahlil qilindi. Bunda:

– “Enforcement pyramid” (targ'ibot – monitoring – ijro) modeli [12–14];

– huquqbuzarliklarning oldini olish (profilaktika) va javobgarlik choralarini qo'llash o'rtasidagi muvozanat [7–8, 17–19]

asosiy konseptual yondashuv sifatida qo'llanildi. Ekopolitsiya vazifalarining ushbu piramidadagi bosqichlar bilan o'zaro bog'liqligi, profilaktika, tekshiruv, ma'muriy va jinoiy choralar tizimi tahlil qilindi.

5. Tadqiqotdagi metodik va axborot cheklovlar

Tadqiqot jarayonida bir qator cheklovlar mavjud bo'ldi, jumladan:

– Ekopolitsiya instituti nisbatan yangi bo'lgani sababli, uning amaliy natijalari bo'yicha to'liq statistik baza shakllanmagan;

– jinoiy ishlar materiallari va ichki xizmat yo'riqnomalari ochiq emasligi bois tahlil asosan ochiq normativ-huquqiy hujjatlar, OAV va ilmiy manbalar bilan chegaralangan;

– xalqaro qiyosiy materiallar asosan OECD, EI va Italiya tajribasi bilan chegaralangan, boshqa mintaqalar (Lotin Amerikasi, Janubi-Sharqiy Osiyo) bo'yicha ma'lumotlar maqolada chuqur yoritilmagan.

Shunga qaramay, qo'llanilgan kompleks metodologiya Ekopolitsiya institutini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan baholash uchun yetarli asos yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy strategiya va konsepsiya hujjatlari Ekopolitsiyani barpo etish zaruratini belgilab berdi [1–2]. Prezident qarori va Ekopolitsiya to'g'risidagi nizom ushbu institutning huquqiy maqomini aniqlab, uni Ekologiya qo'mitasi tarkibidagi maxsus bo'linma sifatida belgiladi. Prokuraturadan 40 ta shtat birligining o'tkazilishi orqali huquqiy nazorat funksiyalarining bir qismi ekologik organ doirasida markazlashtirildi [3–5]. Ekopolitsiyaga kuch ishlatish, maxsus vositalar va quroldan foydalanish huquqi berilishi, faoliyatning bodi-kameralar orqali yozib borilishi kabi normalar uni politsiya-tipdagi tuzilma bilan yaqinlashtiradi. Biroq kuch ishlatish tartibiga doir me'yorlar hozircha “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi Qonundagi umumiy qoidalarga bog'langan [5].

Tahlil natijasida Ekopolitsiya modelining quyidagi tarkibiy belgilari ajratildi:

– vertikal boshqaruv (Ekologiya qo'mitasi raisi — Ekopolitsiya boshlig'i);

– prokuraturadan funksional transfer (ekologik nazorat bo'yicha ayrim shtatlar);

– hududiy tuzilmani tabiiy-ekologik hududlar asosida shakllantirish (ma'muriy chegaralar emas, balki suv havzalari, tog' tizmalari, o'rmon massivlari kesimida);

– politsiyaga xos vakolatlari (kuch ishlatish, qurol, tezkor shtab);

– profilaktika, monitoring va ijroni birlashtiruvchi gibrid funksiyalar [12–14].

2023–2025-yillardagi rasmiy hisobotlar mavjud inspeksiya modelining faol ekanini ko'rsatadi: minglab reydlar, o'n minglab huquqbuzarlik holatlari va katta miqdordagi jarimalar qo'llangan [6]. Biroq jinoyat va huquqbuzarliklar sonining yuqoriligi mavjud profilaktika mexanizmlarining yetarli samaraga ega emasligidan dalolat beradi. Ekopolitsiya joriy qilinishi aynan shu muvozanatni o'zgartirishga — profilaktika va moslikni ta'minlashni kuchaytirishga qaratilgan institutsional islohot sifatida namoyon bo'ladi.

Ekologik huquq nazariyasida atrof-muhitni muhofaza qilish davlat faoliyatining alohida sohasi sifatida qaraladi; u iqtisodiy, ijtimoiy va xavfsizlik funksiyalari bilan chambarchas bog'liq. S.A. Bogolyubov va hammualliflar ta'kidlaganidek, ekologik munosabatlar obyekti sifatida tabiat va ekotizimlar “mulk” yoki “oddiy



moliyaviy” obyektlarga nisbatan boshqacha huquqiy rejimni, jumladan, davlat nazorati va javobgarlikning maxsus shakllarini talab qiladi [9].

O‘zbek olimlari (Shodimetov, Tursunov, Xolmuminov) ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ma’muriy va jinoiy javobgarlikni kuchaytirish bilan birga, eng muhimi — profilaktika, axborot-targ‘ibot va aholining ekologik madaniyatini oshirish zarurligini ta’kidlaydi [7–8]. Ekopolitsiya institutining “huquqbuzarliklar profilaktikasi” funksiyasini o‘zining markaziy vazifalaridan biri sifatida belgilashi aynan ushbu doktrinal yondashuv bilan uyg‘unlashadi [5].

OECD tadqiqotlari va tavsiyalariga ko‘ra, ekologik moslikni ta’minlash tizimlari quyidagi modellar orqali amalga oshiriladi:

- markazlashgan inspeksiya organlari (vazirlik tarkibida);
- tarmoq inspeksiyalari va politsiya/prokuratura bilan hamkorlik modellari;
- politsiya-tipdagi maxsus ekologik tuzilmalar (environmental police) [12–14].

Italiyadagi Carabinieri “for the Environment and Sustainability” bo‘linmasi ushbu politsiya-tipdagi modelning yaqqol namunasi bo‘lib, unda jinoyatlarni tergov qilish, tezkor choralar ko‘rish, dalil to‘plash va ekologik jinoyatlarning oldini olish vakolatlari birlashgan [15–16].

O‘zbekistondagi Ekopolitsiya institutsional jihatdan to‘liq mustaqil politsiya organi emas — u Ekologiya qo‘mitasi tarkibiy bo‘linmasi, biroq unga politsiyaga xos vakolatlar (kuch ishlatish, qurol, tezkor shtab) berilgan. Shu bois, milliy model gibrid tip sifatida tavsiflanadi:

- inspeksiya va monitoring — ekologik organ modeliga xos;
- kuch ishlatish va maxsus vositalar — politsiya modelining belgisi;
- prokuraturadan o‘tkazilgan shtatlar — jinoiy huquq va protsessual malaka elementlarini olib kiradi [12–16].

OECDning “environmental compliance assurance” konsepsiyasiga ko‘ra, ekologik moslikni ta’minlash quyidagi asosiy bloklardan iborat:

1. moslikni targ‘ib qilish (informing, advising);
2. moslikni monitoring qilish (inspections, monitoring);
3. ijro choralari qo‘llash (enforcement — ma’muriy va jinoiy sanksiyalar) [12–14].

Ekopolitsiya ushbu piramidaning ikkinchi va uchinchi bosqichlarini birlashtirib, monitoring va ijro mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan. Biroq konsepsiya talabiga ko‘ra, mazkur mexanizm profilaktika va axborot funksiyalarisiz to‘liq samara bermaydi. Shu sababli Ekopolitsiyaning nafaqat jazo organi, balki ekologik madaniyatni oshirish va moslikni targ‘ib qilishda faol subyektga aylanishi maqsadga muvofiqdir [2, 12–14].

Ekopolitsiya xodimlariga kuch ishlatish, elektroshok qurilmalari va maxsus qurollardan foydalanish huquqining berilishi, bir tomondan, atrof-muhitga katta zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan og‘ir huquqbuzarliklarga (ommaviy noqonuniy o‘rmon kesish, zaharli chiqindilarni noqonuniy ko‘mish, brakon‘yerlik) tezkor javob qaytarish zaruratidan kelib chiqadi. Boshqa tomondan, ekologik huquqbuzarliklarning katta qismi ma’muriy-iqtisodiy xususiyatga ega bo‘lganligi bois, ularga nisbatan kuch ishlatish zarurati har doim ham yuzaga kelmaydi [9, 17–19].

Shu nuqtai nazardan, proporsionallik, zarurlik va huquqiy aniqlik tamoyillariga qat’iy amal qilish muhimdir. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonundagi qoidalarni Ekopolitsiya faoliyatiga qo‘llash o‘tish davridagi yechim bo‘lsa-da, kelgusida Ekopolitsiyaga oid alohida qonun yoki nizomda kuch ishlatishning asoslari, qo‘llash tartibi va nazorat mexanizmlari aniq belgilanishi zarur.

Ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ko‘p subyektli tizim ishtirok etadi: Ekologiya qo‘mitasi, Ekopolitsiya, ichki ishlar organlari, prokuratura, sudlar, mahalliy hokimiyat organlari. Xalqaro tadqiqotlar ko‘rsatishicha, vakolatlar aniq taqsimlanmasa, “institutsional parchalanganlik” va funktsiyalar dublikatsiyasi samaradorlikni pasaytiradi [16].

Ekopolitsiya prokuraturadan o‘tgan shtatlar orqali huquqiy salohiyatni kuchaytirsada, IIO va prokuratura bilan o‘zaro hamkorlik protokollarini ishlab chiqish, qo‘shma tekshiruvlar, ma’lumot almashinuvi va jinoyat ishlari bo‘yicha hamkorlik mexanizmlarini aniq huquqiy tartibga solish talab etiladi [14].

Bundan tashqari, kadrlar salohiyati va texnik ta’minot muammosi ham dolzarbdir. OECD materiallarida ko‘plab davlatlarda ekologik inspeksiya va politsiya organlarida resurs yetishmovchiligi, malaka muammolari va yuqori yuklama mavjudligi qayd etilgan. Ekopolitsiyani 2025–2027-yillarda maxsus texnika va transport bilan ta’minlash rejasi muhim qadam bo‘lsada, bunga parallel ravishda muntazam malaka oshirish, xalqaro tajriba almashish, kasbiy etika va inson huquqlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini shakllantirish zarur.

Ekologik politsiya va inspeksiyalarning samaradorligi ko‘p jihatdan jamoatchilik ishonchiga bog‘liq. Interpol va Oryx jurnalida qayd etilishicha, ekologik jinoyatlar ko‘pincha “ko‘rinmas jinoyatlar” sifatida qolib ketadi va jamoatchilik hamda OAV e’tiborini kam jalb qiladi [19]. Shu bois Ekopolitsiya faoliyati natijalarini (reydlar soni, aniqlangan huquqbuzarliklar, da’vo summolari, tiklash ishlari) ochiq e’lon qilish, interaktiv xaritalar va onlayn hisobotlar orqali axborot berish, fuqarolar murojaatlariga tezkor javob tizimini yo‘lga qo‘yish jamoatchilik



ishonchini mustahkamlash uchun muhimdir [14]. Bodi-kameralardan foydalanish ham shaffoflikni oshirish va korrupsiya xavflarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin, biroq yozuvlarni saqlash, foydalanish va jamoatchilik nazorati mexanizmlari aniq belgilanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda Ekopolitsiya instituti ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish va huquqbuzarliklarning oldini olishga ixtisoslashgan, huquqni muhofaza qiluvchi maxsus gibrid organ sifatida shakllanmoqda. Institutsional jihatdan u Ekologiya qo'mitasi tarkibida faoliyat yuritadi hamda prokuraturadan o'tkazilgan shtatlar va politsiyaga xos vakolatlar orqali inspeksiya va ijro funksiyalarini birlashtiradi. Bu model xalqaro amaliyotdagi environmental police va environmental inspectorate o'rtasidagi o'rta (gibrid) tip sifatida tavsiflanishi mumkin [16].

Ekologik huquq nazariyasi va xalqaro tadqiqotlar ekologik moslikni ta'minlashda jazolash va profilaktika, ma'muriy va jinoiy ijro, davlat nazorati va jamoatchilik ishtiroki o'rtasidagi kompleks o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi. Ekopolitsiyaning profilaktik funksiyalarini kuchaytirishi ushbu global tendensiyaga mos keladi. Biroq kuch ishlatish vakolati, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, institutsional koordinatsiya, kadrlar salohiyati va jamoatchilik ishonchi bilan bog'liq bir qator muammo va xatarlar mavjud bo'lib, ularni huquqiy va tashkiliy jihatdan hal etish Ekopolitsiya samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omillardan hisoblanadi.

Amaliy takliflar

1. Huquqiy asoslarni takomillashtirish
 - Ekopolitsiya vakolatlari, ayniqsa kuch ishlatish, tintuv, hujjat talab qilish, ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirish tartiblari bo'yicha aniq, batafsil va inson huquqlari kafolatlariga mos mustahkam huquqiy bazani yaratish (alohida Qonun yoki kompleks Nizom orqali).
 - Kuch ishlatishning asoslari, chegaralari va nazorati bo'yicha alohida normalarni belgilash.
2. Institutsional koordinatsiyani kuchaytirish
 - Ekopolitsiya, Ichki ishlar organlari, prokuratura va sudlar o'rtasida ekologik ishlarni yuritish bo'yicha yagona hamkorlik protokollarini ishlab chiqish.
 - Jinoiy va ma'muriy ishlar bo'yicha ma'lumot almashinuvi, qo'shma tekshiruvlar va tezkor muvofiqlashtirishni ta'minlaydigan "compliance assurance" platformasini joriy etish.
3. Kadrlar tayyorlash va institutsional salohiyatni oshirish
 - Ekologiya, huquq, kriminalistika, IT va inson huquqlari yo'nalishlarini birlashtirgan maxsus o'quv dasturlarini yaratish.
 - TDIUU, boshqa OTMLar, malaka oshirish markazlari bilan integratsiyalashgan tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimini shakllantirish.
 - Xodimlarni zamonaviy texnika, transport va IT infratuzilmasi bilan bosqichma-bosqich ta'minlash.
4. Shaffoflik va jamoatchilik ishonchini kuchaytirish
 - Ekopolitsiya faoliyati natijalari bo'yicha ochiq hisobotlarni (yillik, choraklik), interaktiv xaritalar, statistik ma'lumotlar va onlayn monitoring tizimlarini joriy etish.
 - Jamoatchilik kengashi yoki maslahatchi organini tashkil etib, fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirish.
 - Bodi-kameralardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlarni saqlash, ulardan foydalanish va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini aniq tartibga solish.
5. Ekologik madaniyat va profilaktika tizimini kuchaytirish
 - Maktablar, OTMLar, mahalla va OAV bilan hamkorlikda "eko-xavfsizlik", "chiqindilar madaniyati", "yashil shahar" kabi dasturlarda Ekopolitsiya ishtirokini institutsionallashtirish.
 - Huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot, maslahat va "eko-moslik" bo'yicha keng ko'lamli axborot kampaniyalarini amalga oshirish.
6. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish
 - Interpol, UNEP, OECD, shuningdek qo'shni davlatlarning ekologik politsiya va inspeksiya organlari bilan qo'shma treninglar, operatsiyalar va tajriba almashuv dasturlarini yo'lga qo'yish.
 - Ekopolitsiyani global ekologik ijro tarmoqlariga integratsiya qilish, ekologik jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha xalqaro ma'lumot almashuvini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. PF-16-son Farmon – "Ўзбекистон-2030" стратегиясини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. Lex.uz, 30.01.2025. <https://lex.uz/docs/7369703>
2. PQ-184-son Qaror – "2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида", 15.05.2025. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/7528761>
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти. "Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Qaror, 19.11.2025. President.uz. <https://president.uz/uz/lists/view/8690>



4. “Экология вазирлиги ҳукумат таркибидан чиқарилиб, қўмига айлантирилади”, 19.11.2025. Advice.uz. <https://advice.uz/uz/news/2611>
5. Kun.uz. “Ўзбекистонда экополиция ташкил этилмоқда”, 19.11.2025. <https://kun.uz/kr/news/2025/11/19/ozbekiston-da-ekopolitsiya-tashkil-etilmoqda>
6. “Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi tomonidan 3500 dan ortiq reytd tadbirlari o'tkazildi”, 03.07.2025. Gov.uz. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/64334>
7. “ЭКОЛОГИЯ ХУҚУҚИ” дарслиги. Renessans-edu.uz, 2024. https://renessans-edu.uz/files/books/2024-11-30-11-23-47_e4259e1f46e3cdb6b020636259075454.pdf
8. Турсунов Х.Т., Рахимова Т.У. “Экология” ўқув қўлланма, Тошкент. 2006. <https://lib.jdpu.uz/storage/uploads/files/Ekologiya.Tursunov.pdf>
9. Боголюбов С.А. (ред.). Экологическое право: учебник для бакалавров. – Москва: Юрайт, 2011. <https://urait.ru/book/ekologicheskoe-pravo-510433>
10. Sarbinaz R. “Formation of National Environmental Law in Uzbekistan.” International Journal of Legal Consciousness, 2024. https://www.google.com/search?sca_esv=d2d90cef6f0104e6&sxsrf=AE3TifOBP1gDovwax_vEfAliaJsfNaE-c2A:1763732073012&q=Sarbinaz+R.+Formation+of+National+Environmental+Law+in+Uzbekistan.+International+Journal+of+Legal+Consciousness.+2024.&sa=X&ved=2ahUKEwiinMP9rYORAXBPhAIHY66FBwQgwN6BAgQEA
11. Гармонизация экологического законодательства узбекистана с международными стандартами. International Multidisciplinary Journal of Research and Development, 2025. <https://www.ijmrd.in/index.php/ijmrd/article/view/3575>
12. Рекомендация Совета по обеспечению соблюдения природоохранного законодательства (OECD/LEGAL/0494). 2019. <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0494>
13. OECD. Ensuring compliance with environmental regulations in the green economy. 2024 brochure. <https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/topics/policy-sub-issues/ensuring-environmental-compliance/brochure-environmental-compliance-assurance-eap-2024.pdf>
14. OECD. Compendium of good practices in promoting, monitoring and enforcing environmental compliance. 2021. <https://www.eu4environment.org/app/uploads/2021/08/OECD-compendium-of-good-practices-in-compliance-assurance.pdf>
15. Carabinieri. “For the Environment and Sustainability.” Institutional brochure. <https://www.bupnet.eu/wp-content/uploads/2025/09/UpSpace-wp4-Cross-country-study-1.pdf>
16. EFFACE Project. “Fighting Environmental Crime in Italy: A Country Report.” 2015. https://efface.eu/sites/default/files/EFFACE_Fighting%20Environmental%20Crime%20in%20Italy/index.pdf
17. Murni P. Обеспечение соблюдения уголовных наказаний в соответствии с законами об охране окружающей среды. Международный журнал права и криминологии, 2024, 4 (07), 5–9. <https://inlibrary.uz/index.php/ijlc/article/view/36852>
18. Liu X. “Criminal enforcement and environmental performance.” Ecological Economics, 2024. <https://www.bohrium.com/paper-details/criminal-enforcement-and-environmental-performance-evidence-from-china/1039212065446690823-9522>
19. Синслаир С.Л., Рубино Э.С., Вериссимо Д. Экологические преступления игнорируются международными правоохранительными органами: анализ «красных уведомлений» Интерпола Орух, 2025. <https://ora.ox.ac.uk/objects/uuid:8e1e8126-48a9-4d7e-9139-292f056b6fad>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>